Central Asian Research Journal of Natural and Exact Sciences
INTERNATIONAL SCIENTIFIC, APPLIED AND THEORETICAL JOURNAL
2026 / № 1(2)
SCIENCE FOR A SUSTAINABLE CENTRAL ASIA

DAVLAT MONOPOLIYALARINI XUSUSIYLASHTIRISHGA TAYYORLASHDA IPO MEXANIZMI VA KORPORATIV SHAFFOFLIK

A'zamova Aminabonu Nuraliyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-bosqich talabasi

Email: aminabonuazamova07@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada monopol sohalarni xususiylashtirish, bu jarayonni amalga oshirishda IPO mexanizmi, korporativ ochiqlik, axborotlarni oshkor etish va investorlarga ma'lumotlarni shaffof yetkazish kabi masalalar ko'rib chiqilib, tahlil qilinadi. O'zbekistonda IPO qilgan davlat korxonalari namuna sifatida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: monopol sohalar, IPO, aksiya, xususiylashtirish, ochiqlik, shaffoflik.

Abstract. This artile examines the role of Initial Public Offering (IPO) mechanisms, corporate transparency, and information disclosure in the process of privatizing state-owned monopoly sectors. Furthermore, it analyzes the creation of an open investment environment and evualates the practice of state enterprises in Uzbekistan that have implemented IPO mechanisms.

Keywords: monopoly sectors, privatization, IPO mechanism, corporate transparency, information disclosure, investor attractiveness, joint-stock companies.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tayotgan bo'lsa-da, monopol sohalar hali-hamon saqlanib qolmoqda. Ularning aksariyati davlat korxonalari hisoblanadi. Bu kompaniyalarning raqobatchisi yo'q va davlat mulki bo'lgani uchun rivojlanishdan biroz ortda qolmoqda. Chunki bozorda yagona ishlab chiqaruvchi mavjud bo'lsa, narx qimmat, mahsulot esa sifatsiz bo'ladi. Iste'molchilarda

boshqa tanlov yo‘qligi uchun ular bu mahsulotlarni sotib olishga majbur. Bozorga boshqa tadbirkorlar kirib kelmasa, bu vaziyat davom etaveradi. Shu bilan birga, kompaniya egasi aniq ishlab chiqaruvchi (lar), ya’ni xususiy tadbirkorlar bo‘lmaguncha ham daromad va foyda yuqori bo‘lmasligi mumkin. Korxonalarning sof foydasi va aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlik sohalarini rivojlantirishga ehtiyoj ortgani sababli davlat ma’lum korxonaning belgilangan ulushini ommaga IPO orqali taqsimlashni amalga oshirmoqda. IPO qilishdan asosiy maqsad nafaqat kompaniyaning ma’lum qismini xususiylashtirish, kapital jalb qilish, aksiyalarning likvidligini oshirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, risklarni ochib berish singari afzalliklarni ham taqdim etadi.

Metodlar

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid maqolalar, rasmiy saytlar, qonunchilik hujjatlari kabi manbaalardan ma’lumotlar olindi, qiyosiy va tizimli tahlil qilinib, mantiqiy umumlashtirildi; statistik va ilmiy guruhlash metod va usullaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokamalar

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 19-aprel kuni davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni xalqaro bozorlarda xususiylashtirish to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Bu qarorda 12 ta yirik korxonadagi davlat ulushlarining mahalliy fond bozorida birlamchi (IPO) va (yoki) ikkilamchi (SPO) ommaviy taklif o‘tkazilishi rejalashtirilgandi. Bu ro‘yxatdan O‘zbekiston pochtasi, Tovar xomashyo birjasi singari kompaniyalar o‘rin olgan bo‘lib, 2-5% gacha IPO qilish rejalashtirilgan. Xususan, UzAuto Motors Powertains 3.6 % IPO qildi.

IPO qilishda asosiy muammo shundan iboratki, korxonada korporativ shaffoflik va axborotlarni oshkor etish, ya’ni moliyaviy hisobotlar, auditorlik xulosalari, kompaniya tuzgan yirik bitimlar ochiqlanishi zarur. Shuningdek, IPO qilish uchun ma’lum xarajatlar ham talab qilinadi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar tizimlashtirilmasa, aksiyalarni cheklanmagan investorlarga sotishda noqulayliklar kelib chiqadi.

Monopol korxonalarda korporativ boshqaruvni yaxshilash va investorlar ishonchini oshirish uchun kompaniya o‘zi haqdagi ma’lumot va o‘zgarishlarni muntazam

ravishda Toshkent fond birjasi va o‘zining rasmiy saytida berib borishi lozim. Aksiyadorlik jamiyatini rivojlantirish uchun Kuzatuv kengashida mustaqil direktorlar sonini oshirish va moliyaviy jinoyatlar kelib chiqmasligi uchun ijroiya organiga sof foydaning ma’lum bir qismini maosh sifatida to‘lashi kerak.

Xulosa

Monopol sohalarni xususiylashtirish va kompaniyani rivojlantirish uchun IPO, korporativ boshqaruv va shaffoflik muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimova A. R. Tabiiy monopoliya sohalarida raqobat muhitini shakllantirishning nazariy-huquqiy masalalari // Yurisprudensiya. -2021. – Jild 1, Maxsus son I. – B. 74-81. – URL: https://yurisprudensiya.tsul.uz/index.php/yurisprudensiya/article/view/315

2. Mamatmurodov A. S. IPO jarayonining iqtisodiy mohiyati va aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanishidagi roli // Muhandislik va iqtisodiyot. -2025. – 9-son. – B. 9-18.

3. O‘zbekistonning 12 ta davlat korxonasi uchun IPO va SPO taqvimi tasdiqlandi… [Elektron resurs] // Gazeta.uz internet nashri. – 2025-yil 23-aprel. – URL: https://www.gazeta.uz/uz/2025/04/23/ipo/